

NOTIQLIK PUBLITSISTIK USLUBNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Djalilova Zarnigor Baxadirovna

Buxoro Davlat Universiteti Lingvistika: ingliz tili kafedrası o'qituvchisi, PhD

Ibotova Mohigul Komilovna

Buxoro Davlat Universiteti Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada publitsistik uslubning o'ziga xos jihatlari va uning asosiy vazifalari bayon etilgan. Shuningdek, publitsistik uslubning tarkibiy qismlari, xususan, notiqlikning lingvistik xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *publitsistik uslub, notiqlik, takrorlash*

Zamonaviy ingliz tilining nutq uslublari tizimida taxminan XVIII asr o'rtalarida alohida uslub ajralib chiqa boshladi. Bu publitsistik uslub deb nomlanib, boshqa nutq uslublaridan farqli o'laroq u aynan bir xil uslub me'yorlari doirasida ish yuritmaydi.¹ U janrlarning xilma-xilligi, til vositalaridan uslubiy foydalanishning rang-barangligi kabi belgilar bilan xarakterlanadi. Xususan, ushbu uslub o'zining obrazlilik, hissiy-ta'siriy xususiyati bilan badiiy uslubga; yorqinligi, aniqligi va terminologik leksikasi bilan ilmiy uslubga yaqin turadi. Ma'noning ilmiy va badiiy uslublar elementlari bilan qorishgan, uyg'unlashgan holda ifodalanishi publitsistik nutqning salohiyatini yanada ko'taradi va uning ta'sirchanligini oshiradi.

Publitsistik uslub muayyan ijtimoiy maqsadga, lingvistik vazifalarning uyg'unligiga ega bo'lib, u keng ommaga qaratilgan ommaviy nutqlarda, siyosiy chiqishlarda, ijtimoiy va siyosiy adabiyotlarda va bosma ommaviy ishlarda o'z aksini topadi.

Publitsistik uslubning umumiy maqsadi – jamoatchilik fikriga ta'sir qilish, o'quvchi yoki tinglovchini yozuvchi yoki so'zlovchi tomonidan berilgan izoh yagona to'g'ri talqin ekanligiga ishontirish va uni nafaqat mantiqiy dalillar bilan, balki hissiy qiziqish bilan ham qabul qilishga undaydi.² Shu jihatdan ushbu uslub o'zining obrazlilik, hissiy-ta'siriy xususiyati bilan badiiy uslubga; yorqinligi, aniqligi va terminologik leksikasi bilan ilmiy uslubga yaqin turadi.

Publitsistik uslubda, shuningdek, hissiy bo'yoqdor so'zlashuv uslubining ba'zi elementlari ham mavjud, chunki muallif aniq bir shaxsga yo'naltirilmagan nutqni (ilmiy yoki rasmiy uslubda bo'lgani kabi) emas, balki, bevosita odamlar bilan gaplashayotgandek uni jonli muloqotga yaqinlashtirishga harakat qiladi.

Publitsistik uslub o'zining yozma va og'zaki ko'rinishlariga ega. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar uslubning

¹ Dr. Margherita Dore. (2000). Introduction to Stylistics. Italy: Sapienza. P. 34.

² Galperin I.R. *Stylistics*. Moscow: Vysshaya shkola, 1977

yoza turidagi namunalaridir. Notiqlik esa publitsistik uslubning og'zaki turidir. Notiqlikning eng aniq maqsadi ishontirish bo'lib, u notiqdan so'zamonlikni talab qiladi.³ Bu uslub davrning siyosiy-ijtimoiy muammolariga bag'ishlangan nutqlarda, to'y, dafn va yubiley kabi tantanali marosimlardagi nutq va murojaatlarda, va'z va munozaralarda, shuningdek, sudlardagi maslahatchilar va sudyalarning nutqlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Tinglovchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot tilning sintaktik, leksik va fonetik xususiyatlarini uyg'unlashtirishga imkon beradi. Bu uslubning ikkala turida ham siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy salobat, tashviqot va targ'ibot kabi xususiyatlar mavjud.

Notiqlikning ba'zi o'ziga xos xususiyatlari:

a) maxsus ifodalar orqali tinglovchilarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish (*Xonimlar va janoblari!; Hurmatli partiya a'zolari!; Janob rais!; Muhtaram a'zolar!; Konferensiyaning yuqori martabali a'zolari!*);⁴ yoki kamroq rasmiy vaziyatda (*Qadrli do'stlar!*); yoki yanada ehtirosli bo'yoqdorlik bilan (*Do'stlarim!*). To'g'ridan-to'g'ri murojaat iboralari nutq davomida takrorlanishi va boshqacha ifodalanishi mumkin (*Mark you! Mind!*).

b) nutq oxirida tinglovchilarga minnatdorchilik bildirish uchun qo'llaniladigan maxsus ifodalar (*Katta rahmat; Vaqt ajratganingiz uchun rahmat*).

d) I shaxs ko'plikdagi *We (Biz)*, II shaxs ko'plikdagi *You (Siz)* olmoshlarining qo'llanilishi: *Bizga bu haqiqatlar o'z-o'zidan ravshanki, barcha insonlar teng yaratilgan. Ularga Yaratguvchi tomonidan ma'lum ajralmas huquqlar berilgan, ular orasida Hayot, Ozodlik va Baxtga intilish kabilar bor... (Tomas Jeferson, Mustaqillik Deklaratsiyasi).*⁵

e) *I'll, won't, haven't, isn't* (bo'lmaydi; yo'q; emas) kabi yordamchi fe'l qisqartmalarining qo'llanilishi: *Biz millatimizni davolash haqida gapiryapmiz, siyosat haqida emas. Biz hammamiz bu yerga hayotni saqlab qolish uchun qo'limizdan keladiganini qilish uchun jamuljammiz... Men bu chaqiriqni eshitganingiz uchun sizga rahmat aytmoqchiman. Aslida, men sizga emas, balki ushbu xitobni sizga yetkazgani uchun Ilohga (Xudoga) minnatdorchilik bildirishim kerak (Jorj V. Bush).*⁶

f) so'zlovchining tinglovchilar bilan yaqinroq munosabatga kirishish uchun ularga ritorik so'roq gaplar bilan murojoat qilishi: *Ba'zida odamning o'zini o'zi boshqarishiga ishonib bo'lmaydi, deyishadi. Unda uning boshqalarni boshqarishiga ishonish mumkinmi? Yoki biz uni boshqarish uchun podshoh qiyofasida farishtalarni topdikmi? Tarix o'zi bu savolga javob*

³ Yu.M.Skrebnev *Fundamentals of Stylistics*. Moscow, 2003

⁴ Tarjima o'zimizniki

⁵ Merrill D. Peterson *Thomas Jefferson and the New Nation: A biography*. Oxford University Press, 1970. p.90

⁶ George W. Bush. Remarks at the White House Conference on Faith-Based and Community Initiatives in Los Angeles, California. March 03, 2004

bersin. (T.Jeferson)⁷ yoki tinglovchilarni undash: *Kelinglar, jasorat va ishonch bilan o'zimizning federal va respublika tamoyillariga intilaylik.*

So'zlashuv uslubi singari, notiqlik odatda hissiy bo'yoqdorlik va konnotatsiyalar bilan ajralib turadi, ammo ularning o'rtasida farq bor. Publitsistik uslubning hissiy bo'yoqlari baland – u tantanali yoki istehzoli bo'lishi mumkin, lekin so'zlashuv nutqida uchraydigan "quyi" darajadagi (hazilomus, qo'pol, beadab yoki jargonli) ma'nolarga ega bo'la olmaydi.⁸ Nutqlarning lug'at tarkibi odatda puxtalik bilan tanlanadi va asosan uslubning yuqori darajasida saqlanib qoladi.

Tinglovchilar odatda xotiraga tayanganligi sababli, ma'ruzachi ko'pincha ularni ergashtirish va nutqning asosiy fikrlarini saqlab qolishi uchun takrorlashdan foydalanadi. Shuningdek, takrorlash tinglovchilarni ishontirish, so'zlovchi fikrini salmoqli qilish maqsadida ham qo'llaniladi. Amerika Konfederatsiyasi generali A.P.Xillning AQShda fuqarolar urushi tugashi haqidagi nutqidan olingan quyidagi parcha anaforik takrorlashning namunasidir:

Bu xalqning urush ehtiroslaridan qutulish vaqti keldi. Safsatabozlardan emas, davlat arboblari maslahat olish vaqti keldi... Shimol va Janub xalqlari bir-birini tushunib, bir-biriga ishonch uyg'otish vositalarini tadbiiq etish vaqti keldi.

Keltirilgan misollardan xulosa qilib aytish mumkinki, publitsistik uslub xabar va ta'sirning kombinatsiyasidir. Bunda o'quvchiga ta'sir o'tkazish va muallifning qarashlarini ochib berishda aniq pragmatik funksiyalardan foydalaniladi. Umuman olganda, ommaviylik, siyosiylik, alohida emotsionallik, baholash va fikr teranligi publitsistik nutqqa xosdir.

REFERENCES:

1. Arnold I.V. *Стилистика современного английского языка*. Л., 1973
2. Dr. Margherita Dore. (2000). *Introduction to Stylistics*. Italy: Sapienza. P. 34.
3. Galperin I.R. *Stylistics*. Moscow: Vysshaya shkola, 1977
4. R.Qo'ng'urov va b. *Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari*. T., "O'qituvchi", 1992
5. R. Fowler. *The new stylistics*. Oxford, 1975
6. Yu.M.Skrebnev *Fundamentals of Stylistics*. Moscow, 2003

⁷ *The Papers of Thomas Jefferson, Volume 33: 17 February to 30 April 1801*. Princeton University Press, 2006

⁸ Galperin I.R. *Stylistics*. Moscow: Vysshaya shkola, 1977